

QOVOQ O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI

X.K. Matjanova

Qoraqalpog'iston qishloq xojalik va agrotexnologiyalar instituti oqituvchisi b.f.n., dotsent.

E.K. Orazimbetov

Qoraqalpog'iston qishloq xojalik va agrotexnologiyalar instituti doktaranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16811546>

Annotatsiya. Maqola avvalida qovoqdoshlar oilasiva qovoq turkumining dunyodagi yuksak o'simliklar orasidagi sistematik o'rniغا alohida e'tibor qaratilgan. Bunda yangi zamonaviy nomeklaturaga asoslangan. Qovoq turkumi turlari uchun umumiy bo'lgan bo'lgan botanik tavsifi, morfologiyasi, o'sish va rivojlanishi, fenologik o'zgarishlari haqida ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar asosida kiritilgan. Ayrim navlar va duragaylar tajriba sifatida ekilib, ularning morfobiologik ko'rsatgichlari maqolada keltirilgan.

Kalit so'zlar: qovoqdoshlar, qovoq, kimyoviy tarkib, polivitamin, vegetatsiya davri, dorivor vositalar, shifobaxshlik xususiyatlari.

Аннотация. В статье впервые рассматривается систематическое положение семейства Тыквенные (*Cucurbitaceae*) и порядка Тыквенные (*Cucurbitaceae*) среди высших растений мира. Оно основано на новой современной номенклатуре. На основе научной литературы приведены сведения о ботаническом описании, морфологии, росте и развитии, а также фенологических изменениях, общих для видов семейства Тыквенные (*Cucurbitaceae*). Некоторые сорта и гибриды были высажены в качестве экспериментов, и в статье представлены их морфобиологические показатели.

Ключевые слова: тыква, народная медицина, лечебные свойства.

Ushbu maqolada qovoqdoshlar (*Cucurbitaceae* Juss.) oilasining qovoq (*Cucurbita L.*) turkumiga kiruvchi madaniy qovoq turlari, ularning O'zbekistonda, eng ko'p ekiladigan navlarining botanik tavsifi, morfologiyasi, fenologiyasi, ahamiyati, ayrim turlarining kimyoviy tarkibi, ilmiy meditsina va xalq tabobatida qo'llanilishi hamda yetishtirish texnologiyasi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Ushbu izlanishdan asosiy maqsad — qovoq turkumi turlari, ularning respublikamizda eng ko'p ekiladigan havlari hamda chet eldan keltirilgan ayrim duragaylarining mavsumiy o'sish va rivojlanish qonuniyatları, tarkibiva ahamiyatini ilmiy manbalar asosida o'rganib, taxlil qilish va Qoraqalpog'iston sharoitida o'stirib, fenologiyasini o'rganishdan iborat.

Qovoq (*Cucurbita L.*) yuksak o'simliklar kenja dunyosining magnoliyatoifa (*Magnoliophyta*) bo'limi, magnoliyasimonlar (*Magnolipsida*) sinfi dalachoy kabilar (*Dilleniidae*) kenja sinfi, qovoqnamolar (*Cucurbitales*) qabilasi, qovoqdoshlar (*Cucurbitaceae* Juss.) oilasiga mansub [1].

Qovoqdoshlar (*Cucurbitaceae* Juss.) oilasi Yer yuzining deyarli barcha mintaqalarida tarqalgan va 800 turni o'z ichiga oladi. O'zbekiston florasida ushbu oilaning tabiiy holda o'suvchi 18 turi mavjud. Qovoq navlari esa 900 ga yaqin bo'lib, ulardan 400 navi iste'molga yaroqli [2].

Qovoq (*Cucurbita L.*) gajjaklari yordamida osilib yoki yotib o'suvchi, dag'al tukli, qirrali poyaga ega, uzunligi 4–6 m ga yetadigan bir yillik xo'jalik ahamiyatiga ega o't o'simlik.

Uning barglari yirik, yuraksimon yoki chuqur besh bo'lakli, dag'al tukli bo'lib, bandlari uzun, tur va navlariga qarab shakli, rangi va tuklanishi har xil bo'ladi. Uzun bandi yordamida poya va shohlarida ketma-ket o'rnashgan [6]. Ko'pchilik navlarida erkak va germafrodit gullar uchraydi, ayrim navlarida esa erkak va urg'ochi gullar uchraydi. Ya'ni bir uyli, ayrim jinsli o'simlik.

Urug'dan unib chiqqandan 25–35 kun o'tgach, gullay boshlaydi. Avval erkak gullari, 5–10 kundan so'ng urg'ochi gullari ochiladi. Keyinchalik erkak va urg'ochi gullari bir vaqtida ochilaveradi. Erkak gullari bir kun, urg'ochi gullari 2–3 kun (ertalab ochilib, kechqurun yopiladi) ochilib turadi. Ular chumoli, trips, asalari va boshqa hasharotlar yordamida changlanadi. Urg'ochi gullarning ko'pi to'kilib ketadi va palakda pishib yetiladigan 2–5 ta meva bo'ladi. O'simlik mevasining ichida bo'shliq (uya) bo'lib, u yerdagi urug'lar ipchalar yordamida urug'donga birikadi. Mevasi turli shaklli, rangli va katta-kichiklikdagi (odatda yirik), ko'p urug'li, seret va shirali xo'l meva. Iyun-sentyabr oylarida gullaydi, mevasi avgust-oktyabr oylarida pishadi [7].

Mamlakatimizda ekiladigan 140 dan ortiq qovoq navlari har xil morfologik, xo'jalik va biologik belgilari ega bo'lgan quyidagi asosiy uchta turga kiradi:

Qattiq po'stli qovoq (Cucurbita pepo) turining Non kadi navi qovoq ekinlari ekilish maydoni jihatdan nisbatan kam hududga ekiladi. Ushbu nav (+8...+12) daraja harorat ostida 30–40 kun saqlanganda ham foydali moddalarini yo'qotmaydi. Shuning uchun ham uni qish bo'yish saqlash va eksport qilish imkoniyati yuqori [3].

Yirik mevali (Cucurbitamaxima) turning Ispan navi boshqa navlar orasida vegetatsiya davrining uzoq muddat bo'lishi bilan ajralib turadi (120–130 kun). Mazkur nav oktabr oyida pishib yetiladi.

Muskatqovoq (Cucurbitamoschata) turning Palovkadu 265, Qashqar 1644 navlari qovoq ekinlari ekilish maydoni jihatdan eng ko'p hududga ekiladi. Mazkur nav vegetatsiya davri nisbatan qisqaligi va mevasi tarkibida shakar miqdorining ko'pligi bilan boshqa navlardan ajralib turadi.

Ushbu navlar respublikamiz fermer xo'jaliklarida ekib kelinmoqda. Bundan tashqari Andijon viloyati fermer xo'jaliklari er maydonlariga ekib kelinayotgan navlardan, asosan Palov kadu, Stofundoviy, Sturgunovski, Qashqar va Dastor kabi qovoq navlari keng o'rinni oлган.

Qovoq urug'I aprel oxiri-may boshlarida Andijon viloyatida ertaroq (aprel boshida) 4–6 kg/hektar miqdorda ekiladi. Dastlab, urug' 3–5 % li osh tuzi (NaCl) eritmasiga solinib, unda cho'kkalarini ajratib olinib, toza suvda yuviladi. Urug'lar 12–15 darajada 5–7 sm chuqurlikka SBU-2–4A poliz seyalkasining ikkita ekish agregati yordamida lentasimon va bir qatorli 180×90 sm usulida ekiladi [4]. 20–30 C haroratda normal rivojlanadi. O'suv davrida palak uchlarini chilpib, qator oralariga ishlov berilsa, mo'l hosil olish samaradorligi yanada ortadi.

Tajribada Palov kadu navini unib chiqish davrini o'rganish maqsadida yuqoridagi ekish usullari bo'yicha ekilganda urug'ning unib chiqishiga 14 kun vaqt ketdi. Agar qovoq urug'i uchun tuproqda optimal muhit yaratilib, ekish oldidan kimyoviy faol moddalardan me'yorida ishlov berilib, begona o'tlardan va boshqa har xil mikroorganizmlardan himoya qilish uchun turli agrotexnik tadbirlar o'tkazilsa, uning unib chiqish fazasi 7–10 kunga qisqaradi. Qolaversa o'simlikning vegetatsiya davri ham qisqarib, inson manfaatlariga mos ravishda hosil olishga imkon qadar tez erishish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Qovoq o'simligi ba'zi mikrorganizmlar va o'simiklar bilan turlicha ta'sirlashish (allelopatiya) xususiyatiga ega masalan: o'simlik qovun va handalak paykallariga ekilsa, changlanish ta'sirida hosil bo'lgan (gibrild) mevalar tarkibidagi monosaxaridlar miqdori odatdagি qovoq mevalaridan ancha ko'p bo'ladi. Bu esa qovoq meva etining shiraga boy bo'lishini ta'minlaydi.

Zamburug'lar esa qovoq po'sti va tarkibini buzishi bilan unga zararli ta'sir ko'rsatsa, bakteriyalar urug'ni o'rabi turgan shilliq qavatni buzishi tufayli ularga havo tegadi, natijada urug' unadi, meva devorlaridan yorug'lik o'tishi sababli urug' pallalari yashil rangga kiradi.

Qovoq (*Cucurbita L.*) o'simligining asl vatani Markaziy Amerika hisoblanadi. Uning mevasi tarkibida 15–18 % quruq moddalar, 4–11 % qand, karotin, A, B1, B2, C, E, PP, T vitaminlari, urug'ida 50 % gacha moy uchraydi. Qovoq tarkibidagi moylar, oqsillar, vitaminlar, fermentlar oson hazm bo'ladi, shu tufayli eng parxezbob taomlar tayyorlashda va xalq tabobatida keng qo'llaniladi [5]. O'simlik tarkibidagi mikroelementlar, makroelementlar va organik moddalar inson salomatligi uchun dorivorlik ahamiyati juda katta bo'lib, buni quyidagi jadval asosida izohlash mumkin.

Qovoq mevasidan tayyorlangan qaynatma bilan Abu Ali ibn Sino ko'krak va quloq og'rig'ini hamda yo'talni davolagan. Qo'rda ko'mib pishirilgan qovoqni qand bilan aralashtirib, ichni yumshatish uchun iste'mol qilishni buyurgan. Meva shirasini (miyadagi shishlarga, miyaning yallig'lanishiga) miya kasalliklariga va tomoq og'rig'iga davo qilgan. Suvda yoki qo'rda ko'mib pishirilgan qovoqni xalq tabobatida sariq (gepatit) va jigar, o't qopining boshqa kasalliklarini davolash uchun hamda buyrak kasalliklarida siyidik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Qo'rda ko'mib pishirilgan qovoqni shakar bilan aralashtirib qabziyatga qarshi surgi sifatida iste'mol qilishga beriladi. Temiretki, ekzema va kuyish xollarida terini shikastlangan yerlarini davolash uchun shu joyga qovoqni qirib bog'lanadi [5].

Qovoq urug'i organizmdan gjjjalarini (lentasimon gjjjalar—qoramol tasmasimon chuvalchangi va dumaloq gjjjalar — askaridalarni) tushirishda eng yaxshi vosita hisoblanadi.

Chunki qovoq urug'i tarkibidagi toksik moddalar gjjjalarini falajlaydi va bu bilan ushbu gelmentlarga qarshi samarali profilaktik vosita sifatida qo'llaniladi. Buning uchun kun davomida 50 gr qovoq urug'i bilan nonushta qilish kifoya (ertalab noxorga qovurilmagan urug'ni iste'mol qilinadi).

Turli kasallikkarda qovoq juda ham foydali parxez taom hisoblanadi. Uni yumshoq qismi — eti yumshoq surgi, yaralarni davolash va yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. Parxez taom sifatida qovoq buyrak, jigar kasalliklarida, buyrak va yurakni yomon ishlashi natijasida ro'y bergen shishlarda, organizmda tuz almashinuvini buzilishida, kuchli semirishda va boshqa kasallikkarda juda foydalidir. Qovoq kam kalloriyali (uning tarkibida 80 % dan ortiq suv bor) mahsulot bo'lib, organizmdagi ortiqcha suv va osh tuzini chiqib ketishiga yordam beradi. Yurak — qon tomirlari va buyrak faoliyatini susayishi natijasidagi organizmdan ortiqcha suvni chiqarib yuborishda dori sifatida kuniga yarim kilogramm gacha hom yoki 2 kg gacha pishirilgan qovoqni yeyish yoki yarim stakan qovoq shirasini ichish tavsiya etiladi. Qovoqni yana sutda asal, sariq moy va qand qo'shib pishirilgan guruch (shirguruch), manna yoki sok kashalari bilan birga iste'mol qilish ham tavsiya etiladi.

Qovoq tarkibidagi pektin moddalari ichak yallig'lanish kasalliklarida yaxshi ta'sir ko'rsatib, ichakdan bakteriyalarni va zaharli moddalarni chiqib ketishiga yordam beradi va ich ketish bilan o'tadigan kasalliklarda organizmni suvsizlanishini oldini oladi. Shu bilan birga qovoq yana organizmdan xolesterinni ham chiqib ketishini tezlatadi. Shuning uchun yurak — qon tomirlari (ateroskleroz, gipertoniya), surunkali kolit va enterokolit, og'ir (tez) o'tadigan va surunkali nefrit, pielonefrit, xoletsistit, o't tosh va sariq (gepatit) kasalliklari bilan xastalangan bemorlarni kundalik ovqatiga qovoq qo'shib berishni tavsiya qilinadi. Shuningdek qovoq parvez taom sifatida ayniqla qariyalarga va yosh bolalarga foydalidir.

Qovoq shirasi tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi va uyqini yaxshilaydi, hamda quisishga qarshi (xomqovoq ham), ayniqla xomilador ayollarni quisishiga qarshi yaxshi vosita hisoblanadi. Shuningdek bu tabiiy shifobaxsh ne'mat tarkibidagi rux urug' hujayralar faolligini orttirib, bepushtlikni davolash sohasida ham qo'llaniladi. Hatto o'simlik mevasining po'stidan tayyorlangan damlama yuz terisini yumshatadi va bundan tashqari zamburug'larni bartaraf etadi.

Yana, Podagra, ateroskleroz, saratondan saqlaydi. Qarishning oldini oladi. Semizlikdan esa halos qilishga yordam beradi. Qirilgan xom qovoq yarani davolovchi va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida terini kuygan va zararlangan yerlariga, turli toshma yaralarga bog'lanadi. Qovoqdan karotin olinadi. Karotinni dorivor preparati (uning yog'dagi eritmasi va boshqalar) yiringli yaralarni, kuyganni,sovuq urganni, terining zararlangan yerlari va boshqa ekzema, qiyin bitadigan yaralar kabi surunkali kasalliklarni hamda shilliq pardani yallig'lanish kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi.

Bugungi kunda dunyo aholisi organizmda uchrovchi turli kasalliklar tufayli har xil kimyoviy dori-darmonlardan foydalanib, o'sha kasalliklarni oldini olish va davolash mobaynida yangi kasalliklar va hastaliklarni orttirib olish yoki immunitetning passivlashishi kabi nohush holatlarga duchor bo'lmoqdalar. Bunday holatlardan to'g'ri xulosa chiqarish kimyoviy preparatlardan kamroq foydalanib, kasalliklarni davolashda tabiiy dorivor vositalardan keng qo'llashni taqazo etadi. Albatta, bunday dorivor vositalarning aksariyat qismi yashil o'simliklardan olinadi. Shunday o'simliklardan biri esa biz yuqorida foydali xususuyatlarini sanab o'tgan qovoq o'simligi va uning mevasidir. Chunki ushbu o'simlikning turli qismlaridan olingan dorivor moddalar hazm qilish, ayrish, endokrin, qon aylanish, tayanch harakatlanish sistemalarida uchrovchi juda ko'plab kasalliklarga qarshi davolashda samarali vosita hisoblanadi.

O'zbekiston sharoiti uchun qovoq o'simligining turlari va navlari tuproq tanlamaydi, ammo mezofit sharoitida yaxshi o'sadi. Hayotiy strategiyasi bo'yicha mazkur o'simliklarda patiyentlik xususiyati mavjud. Jumladan, trofopatiyentlik va kseropatiyentlik yaxshi namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, respublikamizdag'i ko'plab fermer xo'jaliklari dala maydonlari qirg'oqlariga ekilayotgan qovoq o'simligining turli navlari xalq xo'jaligining va aholining qovoq o'simligi mevasi va undan olinadigan turli-tuman xom ashyolariga bo'lган talabni to'liq qoplay olmaydi. Shuning uchun bu ekinni nafaqat dala maydonlari qirg'oqlariga balki, asosiy ekin sifatida joylashtirish maqsadga muvofiq. Chunki bu ekindan olinadigan hosildorlik boshqa har qanday poliz ekinlariga nisbatan yuqori. Undan tashqari shaxsiy tomorqa dehqon xo'jaliklarida ham bu ekinni ko'proq ekish va uning iste'molini ko'paytirish aholi salomatligini saqlashda va turli kasalliklarga qarshi profilaktika ishlarida yaxshi samara beradi.

O'zbekiston sharoiti uchun sug'oriladigan hamda qarovsiz yerlarda qovoq turkumi turlari va navlari istiqbolli oziq-ovqat, dorivor, moyli, yem-xashak o'simliklari hisoblanadi. Bu o'simlikdan mo'l hosil olish imkoniyati yuqori.

Kelgusi ishlarimizda qovoq o'simligi turlari va navlarida turli ekologik omillarning ta'siri natijasida ularning tarkibi, o'sish va rivojlanishidagi o'zgarishlarini atroflicha o'rganish vazifasini maqsad qilib olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pratov.O'.P, Nabiyev.M. M. O'zbekiston yuksak o'simliklarining zamonaviy tizimi. Toshkent. O'qituvchi- 2007. 11–18 b.
2. Введенский. А. И. Флора Узбекистана. 5- том. Тошкент, 1961. 600–617 с.
3. Pangalo. K. I. Poliz ekinlarining kelib chiqishi va taraqqiyot yo'li. T.: 1969 y.
4. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent. Tafakkur bo'stoni — 2018. 40–45 b.
5. Xamdamova.Z. Xalq tabobatida mevalar bilan davolash. Toshkent. Muhamarrir-2013. 58-65 b.
6. Kursanov. L.I, Razdorskiy. V.F, Komarnitskiy N.A, Uranov.A. A. Botanika. 1- том. Toshkent. O'qituvchi — 1972 y.
7. Ostonaqulov. T.E, Zuyev. V.I, Qodirxo'jaev. O. Sabzavotchilik. Toshlent. O'qituvchi-2009 y. 140 b.